

Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2022-yilning IY- choragida amalga oshirilgan ishlar

Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasining Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishini boshqarma boshlig‘I Sh. Mamadaliyev ochib berdi va yig‘ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o‘tdi.

Shuningdek, Statistika dasturi doirasida boshqarma va uning hududiy statistika organlari tomonidan 2022-yilning IY choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma‘lumotlarni keltirib o‘tdi.

Jumladan, dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022- yil uchun Farg‘ona viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot hajmi joriy narxlarda 55 972,1 mlrd. so‘mnitashkil etdi va 2021- yil bilan taqqoslaganda 4,6% ga o‘tdi. YAHM deflyator indeksi 2021- yil narxlariganisbatan 112,0% ni tashkilqildi. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Farg‘ona viloyatining qo‘shgan hissasi 6,3% ga yetdi.

Viloyat korxonalarini tomonidan 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 30 390,5 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 104,8 % ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 33 395,3 mlrd. so‘mni yoki 2021-yilning mos davriga nisbatan 103,6 % nitashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylariga, Farg‘ona viloyatida jami 8 558,1 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 112,7 % ni tashkil etdi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) **55 716** tani tashkil etib, ulardan **52 746** tasi yoki 94,6 % i faoliyat ko‘rsatmoqda. 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda **9 099** ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 22,0 trln. so‘mni, 2021-yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **114,5** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi 26,0 trln so‘mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan **110,7** % ga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 2 061,4 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport – 827,2 mln. AQSH dollari va import – 1 234,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Farg‘ona viloyatida 3 976,5 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 80,1 ming kishiga yoki 2,1 % ga ko‘paydi. Farg‘ona viloyatida 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida investitsion faollikni oshgani kuzatilib, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 112,3 % ni tashkil etdi. 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 15 396,7 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, ularning 61,4 % i yoki 9 450,8 mlrd. so‘mi jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 38,6 % yoki 5 945,9 mlrd. so‘m moliyalashtirildi.